

"Humans ga ulanganlik uchun 10 000 so'm Keshbek" aksiyasi qoidalari

27-oktyabr 2022-yil

"Humans ga ulanganlik uchun 10 000 so'm Keshbek" aksiyasi (keyingi o'rinlarda "Aksiya" deb yuritiladi) manzili: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2-B uy STIR 306624856 (Provayder) bo'lgan "Humans" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan o'tkaziladi va yangi abonentlarni jalb qilish, Provayder tomonidan taqdim etilayotgan aloqa xizmatlariga qiziqishni oshirish, Provayder bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzishga yo'naltirilgan.

Aksiya haqida ma'lumot

- 1.1. Ushbu Qoidalarning matnida bosh harf bilan ishlatilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi, agar boshqacha belgilanmagan bo'lsa, www.humans.uz veb-saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlari va Humans sodiqlik dasturi qoidalarida keltirilgan.
- 1.2. Aksiya ishtirokchilari Qoidalarning 2-bo'limida sanab o'tilgan harakatlarni sodir etgan shaxslardir.
- 1.3. Aksiya o'tkaziladigan hudud: Farg'ona sh., Farg'ona viloyati,
- 1.4. Aksiya o'tkazilish muddati: 2022-yil 27-oktyabrdan 2022-yil 2-noyabrgacha.

Aksiya tavsifi

2.1. Aksiyani o'tkazish davrida va Aksiya qoidalarining 2.2-bandida ko'rsatilgan shartlarga rioya qilgan taqdirda, Aksiya ishtirokchisi o'zining Keshbek hisobiga (keyingi o'rinlarda "Bonus" deb yuritiladi) 10 000 (o'n ming) miqdorida bir martalik Bonus oladi.

2.2. Aksiya shartlari:

Aksiya o'tkazilish muddati davomida Bonusni olish uchun Provayder bilan Humans Aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarini qabul qilish orqali Aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Shartnoma tuzish kerak.

2.3. Keshbek Provayder bilan Humans xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasi tuzilganidan keyin bir marta o'tkaziladi.

Yakuniy qoidalar

3.1. Ushbu Qoidalar Provayder Saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Provayder bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirishga yoki Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali oldindan xabardor qilib, Aksiyani bekor qilishga haqli. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasi hisoblanadi. Tegishli ma'lumotlar Saytda e'lon qilingan paytdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan va Aksiya bekor qilingan deb hisoblanadi.

3.2. Mijoz tomonidan Qoidalarning 2-bo'limida sanab o'tilgan harakatlarning bajarilishi jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta bo'lgan Qoidalarning to'liq va so'zsiz qabul qilinishini anglatadi.